

**Lizing beruvchi (filial) va lizing oluvchi o'rtasida
tuziladigan lizing shartnomasining namunaviy shakli
LIZING SHARTNOMASI**

20__ yil "___" _____ №_____ shahri

"Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki _____ filiali (keyingi o'rinlarda – Lizing beruvchi) boshqaruvchisi _____ Nizom va Iшонchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tomondan, va _____ (keyingi o'rinlarda – Lizing oluvchi) rahbari ustav (nizom, patent) asosida faoliyat yuritib, ikkinchi tomondan, ushbu lizing shartnomasini (keyingi o'rinlarda – Shartnoma) quyidagilar haqida tuzdik.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Lizing beruvchi ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq lizing ob'ektini mulk sifatida sotib olishga va uni Lizing oluvchiga vaqtincha egalik qilish va tadbirkorlik maqsadida foydalanish uchun mazkur Shartnomada ko'rsatilgan muddatga, shartlarda va haq evaziga lizingga beradi, Lizing oluvchi esa lizing to'lovini ushbu Shartnoma shartlari va lizing to'lovini amalga oshirish grafigiga muvofiq to'laydi.

2. Lizing ob'ekti _____ bo'lib, uning umumiy qiymati _____ (_____) so'm.

3. Lizing ob'ekti Lizing oluvchining, mazkur Shartnomaning 1-ilovasida keltirilgan, buyurtmasiga muvofiq _____ dan (keyingi o'rinlarda – Sotuvchi) xarid qilinishi lozim.

2-§. Lizing ob'ektini yetkazib berish va foydalanishga topshirish

4. Lizing beruvchi tomonidan lizing ob'ektini Lizing oluvchiga vaqtinchalik egalik qilish va tadbirkorlik faoliyatida foydalanishga berish topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

5. Lizing beruvchi lizing ob'ektini ushbu Shartnomada ko'rsatilgan muddatda yetkazib berish to'g'risida Sotuvchi bilan kelisha olmasa, lizing ob'ektini yetkazib berish muddati, Sotuvchi yetkazib berishni kafolatlaydigan vaqtgacha, uzaytirilishi mumkin.

3-§. Lizing ob'ektiga mulk (egalik) huquqi, balans hisobini yuritish va amortizatsiya hisoblash

6. Ushbu Shartnoma amal qiladigan davrda lizing ob'ektiga mulk (egalik) huquqi Lizing beruvchida bo'ladi.

Lizing ob'ektiga vaqtincha egalik qilish va undan foydalanish huquqi ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan cheklovlar bilan Lizing oluvchiga o'tadi.

7. Lizing ob'ekti hisobi Lizing oluvchining balansida yuritiladi va unga amortizatsiya (eskirish) hisoblanadi.

4-§. Shartnoma qiymati, lizing muddati va lizing to'lovlari

8. Ushbu Shartnomaning (lizingning) umumiy qiymati _____ (_____) so'm.

9. Lizing muddati – _____ oy.

10. Lizing bo'yicha asosiy qarzni to'lash tartibi va muddati, mazkur Shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan, grafikda belgilab qo'yiladi. Lizing ob'ektidan foydalanganlik uchun haq (foiz) ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq to'lanadi.

Lizing ob'ektini yetkazib berish muddati o'zgarsa, Lizing oluvchi Lizing beruvchi bilan kelishgan holda lizing to'lovini amalga oshirish grafigini o'zgartirish huquqiga ega bo'ladi.

11. Lizing ob'ektiga oid uch tomonlama oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) to'lovning ___ foizi, ya'ni _____ (_____)

so'mga teng qismi Lizing beruvchining mablag'i hisobidan;

b) to'lovning ___ foizi, ya'ni _____ (_____)

so'mga teng qismi Lizing oluvchining mablag'i hisobidan.

12. Lizing ob'ektidan foydalanganlik uchun foiz stavkasi yillik hisob asosida ___% miqdorida belgilanadi va lizing ob'ektini Lizing oluvchiga vaqtinchalik egalik qilish va tadbirkorlik faoliyatida foydalanishga berishga oid topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab har kunga hisoblab boriladi.

13. Lizing oluvchi lizing ob'ektidan foydalanganlik uchun haqni (foizni), lizing ob'ektini vaqtinchalik egalik qilish va tadbirkorlik faoliyatida foydalanishga berishga oid topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab, har oyning ___-sanasida to'lab beradi yoki Lizing beruvchi tomonidan undirilib olinadi. Lizing to'lovi to'lanadigan kun dam olish kuniga to'g'ri kelsa, lizing ob'ektidan foydalanganlik uchun foizni to'lash, dam olish kunlariga hisoblangan foizni ham qo'shgan holda, dam olish kundan keyingi birinchi ish kunida amalga oshiriladi.

14. Lizing to'lovini amalga oshirish grafigiga muvofiq lizing bo'yicha asosiy qarz o'z vaqtida qaytarilmaganda, foiz stavkasi 1,5 barobar oshiriladi (ya'ni qarzdorlikning muddati o'tgan qismi uchun yillik hisob asosida ___% miqdorida haq undiriladi).

15. Lizing bo'yicha muddati o'tgan foiz to'lovi yuzaga kelgan taqdirda, Lizing oluvchi har bir muddati o'tgan kun uchun to'lov muddati o'tgan qarzdorlikdan 0,5%, lekin muddati o'tgan foiz qarzdorligining 50 foizidan oshmagan miqdorda, Lizing beruvchiga penya to'laydi.

16. Lizing oluvchi tashabbusi bilan ushbu Shartnoma shartlari qayta ko'rilganda, Lizing beruvchi lizing qiymatining so'ndirilmagan qismidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 5 barobarigacha miqdorda vositachilik haqi undirish huquqiga ega bo'ladi.

17. Lizing ob'ektining uch tomonlama oldi-sotdi shartnomasi qiymati 100% to'langan kundan lizing ob'ektini vaqtinchalik egalik qilish va tadbirkorlik faoliyatida foydalanishga berishga oid topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangan kungacha har bir kun uchun Lizing oluvchi tomonidan Lizing beruvchi foydasiga lizing (shartnoma) qiymatidan 0,05% to'lov amalga oshiriladi. ega bo'ladi.

19. Lizing shartnomasini tuzish, lizing ob'ektini sotib olish va uni vakolatli davlat idoralarda ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq Lizing beruvchi tomonidan qilingan barcha xarajatlar, Lizing oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga akseptsiz ravishda mablag'ni yechish uchun to'lov talabnomasi qo'yish orqali, Lizing oluvchi tomonidan qoplanadi.

5-§. Lizing ta'minoti

20. Lizing oluvchi lizing ta'minoti sifatida, Lizing beruvchi tomonidan lizing ob'ekti uchun to'lov amalga oshirilgunga qadar, quyidagilarni taqdim etadi (*ta'minot turiga qarab*):

a) lizing shartnomasi muddatiga sug'urta shartnomasi va sug'urta polisi;

b) notarial tartibda tasdiqlangan garov shartnomasi asosida _____;

v) _____ ning kafillik shartnomasi.

6-§. Lizing ob'ektining sifati va butligi

21. Lizing oluvchi lizing ob'ektini ushbu Shartnomaning 4-bandida belgilangan tartibda qabul qiladi.

22. Lizing beruvchi Sotuvchi tomonidan lizing ob'ektining uch tomonlama oldi-sotdi shartnomasiga ko'ra olingan majburiyatlar bajarilmagan holatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

23. Lizing oluvchi lizing ob'ektining uch tomonlama oldi-sotdi shartnomasidan kelib

chiquvchi lizing ob'ekti sifati va butligi yuzasidan bevosita Sotuvchiga talab qo'yishga haqli hisoblanadi.

7-§. Lizing ob'ekti turadigan joy va undan foydalanish shartlari

24. Mazkur Shartnoma muddati davomida lizing ob'ekti Lizing oluvchiga qarashli manzilda joylashgan ob'ektda turadi.

Lizing ob'ekti turadigan joyni o'zgartirish uchun Lizing beruvchining yozma roziligi olinadi.

25. Lizing oluvchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

a) lizing ob'ektdan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanish;
b) tegishli standartlar, texnik talablar, ekspluatatsiya qoidalari va ishlab chiqaruvchi korxonaga yo'riqnomasiga rioya etish;

v) lizing ob'ektini soz holatda saqlash;

g) lizing ob'ektining ahvolini muntazam ravishda tekshirib turish;

d) lizing ob'ekti faol holatda bo'lishini ta'minlash, uning nosoz qismlarini, agar Lizing beruvchi bilan tuzilgan ushbu Shartnomada boshqacha holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, Sotuvchi yetkazib bergan yoki tavsiya qilgan ehtiyot qismlar bilan almashtirish. Mazkur shart bajarilmagan taqdirda Lizing beruvchi Lizing oluvchidan lizing ob'ektini ta'mirlashni talab qilish huquqiga ega bo'ladi, Lizing oluvchi esa lizing ob'ektini o'z mablag'i hisobidan ta'mirlash majburiyatini oladi;

e) lizing ob'ekti ushbu ob'ekt bo'yicha mutaxassis xodimlar tomonidan to'g'ri ekspluatatsiya qilinishini ta'minlash;

yo) lizing ob'ektiga texnik xizmat ko'rsatish yuzasidan mutaxassislar bajargan barcha ishlar haqini o'z vaqtida to'lash;

j) lizing ob'ektdan foydalanishga qo'yiladigan talablar – ro'yxatdan o'tkazish, litsenziya olish va boshqa zarur talablarni bajarish;

z) Lizing beruvchi tomonidan to'langan barcha xarajatlar, boj, soliq (mulk, yer va qo'shimcha qiymat soliqlari), ushbu Shartnomani bajarish bilan bog'liq turli xarajatlar hamda lizing ob'ektining uch tomonlama oldi-sotdi shartnomasi ijrosiga daxldor xarajatlarni qoplash;

i) lizing ob'ektiga amortizatsiya (eskirish) hisoblash;

y) lizing to'lovini o'z vaqtida to'lash.

26. Lizing beruvchi va Lizing oluvchi o'rtasidagi lizing ob'ektini vaqtinchalik egalik qilish va tadbirkorlik faoliyatida foydalanishga berish topshirish-qabul qilish dalolatnomasi Lizing beruvchining lizing ob'ektiga mulk (egalik) huquqi tegishli davlat idorasida davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng 5 bank ish kuni ichida imzolanadi.

8-§. Lizing ob'ektiga o'zgartirish kiritish

27. Lizing oluvchi Lizing beruvchidan yozma rozilik olmasdan lizing ob'ektiga biron-bir tarzda (lizing ob'ektdan ajraladigan va ajralmaydigan) o'zgartirish yoki tuzatish kiritish huquqiga ega emas.

28. Lizing ob'ektiga Lizing oluvchi tomonidan, Lizing beruvchining yozma roziligi asosida, kiritilgan har qanday o'zgartirish va tuzatish lizing ob'ektining bir qismi hisoblanadi.

9-§. Ushbu shartnoma bo'yicha huquqlar va majburiyatlarning uchinchi shaxsga o'tishi

29. Lizing beruvchiga ushbu Shartnomaga ko'ra tegishli bo'lgan huquqlar (talablar) to'liq yoki qisman uchinchi shaxsga berilishi mumkin. Bunday holatda Lizing beruvchi o'z huquqlari (talablari) uchinchi shaxsga o'tishidan 30 kun oldin Lizing oluvchiga yozma xabar berishi shart.

30. Lizing oluvchi quyidagilarga haqli emas:

a) lizing ob'ektini sotish, shuningdek uni uchinchi shaxs ixtiyoriga o'tkazishga qaratilgan

boshqa harakatlarni amalga oshirish;

- b) lizing ob'ektini korxonaning (tashkilotning) ustav kapitaliga ulush sifatida kiritish;
- v) lizing ob'ektini berib yuborish yoki qayta garovga qo'yish.

31. Lizing oluvchi, Lizing beruvchining yozma roziligini olmay turib, lizing ob'ektiga nisbatan quyidagi harakatlarni qilishga haqli emas:

- a) sublizingga berish;
- b) mazkur Shartnoma bo'yicha huquqlar va majburiyatlarni boshqaga o'tkazish (qayta ijara);
- v) bepul foydalanishga berish;
- g) lizingga oid huquqlarini garovga qo'yish;
- d) uchinchi shaxsni lizing ob'ektining konstruksiyasi va texnik tavsifi bilan tanishtirish.

10-§. Lizing ob'ektini nazorat qilish

32. Lizing beruvchining tegishli vakolatga ega bo'lgan xodimlari lizing ob'ektini nazorat qilishga haqli hisoblanadi.

Mazkur bandni bajarish maqsadida Lizing oluvchi o'zida belgilangan ish vaqti davomida Lizing beruvchi vakillarining lizing ob'ekti turgan va ishlatilayotgan hududga (binoga) bemalol kirishini ta'minlash majburiyatini oladi.

11-§. Lizing ob'ektining kutilmaganda nobud bo'lishi, uni yo'qotib yoki buzib qo'yish oqibatlari

33. Lizing ob'ektini Lizing oluvchiga vaqtinchalik egalik qilish va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolanganidan keyin uning kutilmaganda nobud bo'lishi, uni yo'qotib yoki buzib qo'yishga oid barcha mas'uliyat Lizing oluvchiga o'tadi.

34. Lizing ob'ekti buzib qo'yilganda Lizing oluvchi uni o'z hisobidan darhol tuzatishi hamda uni hamisha faol va ishlaydigan holatda saqlab turishi kerak. Bunday holda ushbu Shartnoma o'zgartirilmaydi, Lizing oluvchi esa mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan tartibda va muddatda lizing to'lovini amalga oshirishni davom ettiradi.

35. Lizing ob'ekti kutilmaganda nobud bo'lgan, shuningdek buzib qo'yilgan va uni tuzatishning imkoni bo'lmagan holda Lizing oluvchi ushbu Shartnomaga ko'ra Lizing beruvchiga to'lanishi kerak bo'lgan lizing to'lovi bilan lizing ob'ekti nobud bo'lgan yoki buzib qo'yilgan paytgacha to'langan lizing to'lovi o'rtasidagi farqni Lizing beruvchiga o'tkazib beradi. Lizing to'lovi to'liq amalga oshirilgan vaqtdan boshlab lizing ob'ektiga mulk (egalik) huquqi Lizing oluvchiga o'tadi.

12-§. Lizing ob'ektini sug'urta qilish

36. Lizing ob'ekti quyidagi tavakkalchiliklardan sug'urta qilinadi:

- a) nobud bo'lish, yong'in, barvaqt eskirish, yo'qotib qo'yish, qayta tiklab bo'lmaydigan darajada buzib qo'yish;
- b) baxsiz hodisa va boshqa tavakkalchiliklar.

37. Sug'urta shartnomasi Lizing beruvchining lizing ob'ektiga mulk (egalik) huquqi tegishli davlat idorasida ro'yxatga olingandan so'ng 5 bank kuni ichida tuziladi.

38. Lizing oluvchi lizing ob'ektini Lizing beruvchi foydasiga sug'urta qiladi. Lizing ob'ekti Lizing beruvchi ma'qullagan sug'urta kompaniyasida ushbu Shartnoma amal qiladigan muddatga sug'urta qilinadi. Sug'urta shartnomasining barcha shartlari Lizing beruvchi bilan kelishilgan bo'lishi lozim. Sug'urta shartnomasi va sug'urta polisining asl nus'hasi, lizing ob'ekti Lizing oluvchiga vaqtinchalik egalik qilish va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolanganiga qadar, Lizing beruvchiga topshiriladi.

39. Lizing beruvchi ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urta qilishga haqli hisoblanadi. Tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash shartnomasi

bo'yicha sug'urta qildiruvchi va undan foyda oluvchi barcha hollarda Lizing beruvchi hisoblanadi.

40. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan har qanday sug'urta majburiyati ushbu Shartnoma amal qiladigan butun muddat davomida kuchga ega bo'ladi.

13-§. Lizing ob'ekti yuzasidan sug'urta to'lovlari

41. Lizing ob'ekti bilan sug'urta holati yuz berganda to'lanadigan barcha to'lovni Lizing beruvchi qabul qiladi.

Lizing ob'ektining nobud bo'lishi yoki buzilishi natijasida Lizing beruvchi ko'rgan zararni Lizing oluvchi o'z hisobidan so'ndirgan, jarima va foizlarni to'lagan taqdirda, ular bilan Lizing beruvchi olgan sug'urta to'lovi orasidagi farq Lizing beruvchining hisobvarag'iga pul mablag'i kiritilgan paytdan boshlab ko'pi bilan 10 kun ichida Lizing oluvchining hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Agar Lizing oluvchi ko'rilgan zarar va jarima to'lovini qisman so'ndirsa, Lizing beruvchi Lizing oluvchiga sug'urta to'lovini, so'ndirilmagan qarzdorlikni chegirib qolgan holda, o'tkazib beradi.

42. Sug'urta shartnomasi bo'yicha olingan pul mablag'ining yetarli emasligi mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan lizing to'lovi, jarima va ko'rilgan zararni Lizing oluvchidan to'liq undirib olish uchun asos bo'ladi.

14-§. Tomonlarning javobgarligi

43. Lizing oluvchi lizing ob'ektini yetkazib berish muddatiga rioya etilmaganligi xususida bevosita Sotuvchiga e'tiroz bildirishga haqli hisoblanadi, bunda Lizing beruvchi lizing ob'ekti bo'yicha uch tomonlama oldi-sotdi shartnomasida belgilangan muddatga Sotuvchi tomonidan rioya etilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

44. Lizing oluvchining javobgarligi:

a) ushbu Shartnomaning 11-bandini "a" kichik bandida qayd etilgan to'lovni, Lizing beruvchi lizing ob'ekti uchun Sotuvchiga to'lovni to'lagunga qadar, amalga oshirish;

b) Lizing oluvchining aybi bilan lizing ob'ekti o'z vaqtida qabul qilinmagan holda, kechiktirilgan har bir kun uchun ushbu Shartnoma umumiy qiymatidan 0,01%, lekin mazkur Shartnoma qiymatining 10 foizidan oshmagan miqdorda, jarima to'lash;

v) mazkur Shartnomaning 25-bandida qayd etilgan majburiyatlar bajarilmaganda lizing bo'yicha qarzdorlikning qoldiq qiymatidan 10% jarima to'lash (jarima to'lanishi Lizing oluvchini ushbu Shartnomaning 25-bandida ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi);

g) Lizing beruvchiga ushbu Shartnomaning 32-bandida qayd etilgan lizing ob'ektini nazorat qilish imkoniyati berilmagan holda mazkur Shartnoma qiymatidan 1% miqdorida jarima to'lash;

d) mazkur Shartnomaning 49-bandida qayd etilgan hujjatlar Lizing beruvchiga taqdim etilmasa, ushbu Shartnoma qiymatidan 1% miqdorida jarima to'lash;

e) ushbu Shartnomaning 31-bandini "a" kichik bandida qayd etilgan harakat Lizing beruvchining yozma roziligisiz amalga oshirilganda, mazkur shartnomaga muvofiq olingan jami to'lovlar miqdorida, lekin lizing ob'ekti sublizing oluvchining ixtiyorida bo'lgan davrda Lizing oluvchi Lizing beruvchiga har bir oy uchun to'lashi lozim bo'lgan lizing to'lovidan kam bo'lmagan miqdorda, jarima to'lash;

yo) mazkur Shartnomaning 31-bandini "b", "v", "g" va "d" kichik bandlarida qayd etilgan harakatlar Lizing beruvchining yozma roziligisiz amalga oshirilganda, ushbu Shartnoma qiymatidan 0,5% miqdorida jarima to'lash;

j) sug'urta mukofoti kiritilganligini tasdiqlovchi hujjatni sug'urta shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab 10 kun mobaynida taqdim etmasa, Lizing beruvchi lizing ob'ektini o'z hisobidan sug'urta qilishi va ushbu sug'urta bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berishni Lizing oluvchidan talab qilishga haqli bo'ladi. Bunday holda yuqorida qayd etilgan chiqimlarni 15

kunlik muddatda qoplash va mazkur Shartnoma qiymatidan 1% miqdorida jarima to'lash;

z) mazkur Shartnomaning 34-bandiga muvofiq o'z zimmasiga olgan majburiyatni bajarmagan taqdirda, Lizing beruvchi lizing ob'ektini o'z hisobidan tuzatishga haqli bo'ladi. Bunday holda Lizing beruvchining barcha xarajatlarini qoplash va ushbu Shartnoma qiymatidan 10% miqdorida jarima to'lash.

15-§. Pul mablag'ini aksepsiz hisobdan chiqarish

45. Quyidagi hollarda pul mablag'ini Lizing beruvchi aksepsiz tartibda Lizing oluvchidan undirib olishga haqli bo'ladi, Lizing oluvchi esa o'zining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idan aksepsiz undirib olinishiga o'z roziligini beradi:

a) Lizing oluvchi tomonidan ushbu Shartnomada belgilangan oraliq to'lov muddati tugagandan keyin lizing ob'ektidan foydalanganlik uchun to'lov ketma-ket ikki marta to'lanmasa – to'lanmagan lizing to'lovi miqdorida;

b) Lizing oluvchi lizing ob'ektini soz holatda saqlamayotgan va bu uning iste'mol sifatini yomonlashtirayotgan bo'lsa – mazkur Shartnoma qiymatidan 10% miqdorida.

16-§. Shartnomani Lizing oluvchi tashabbusi bilan bekor qilish

46. Lizing beruvchi lizing ob'ektidan ushbu Shartnoma shartlariga yoki belgilangan maqsadda foydalanishga to'sqinlik qilganda, mazkur Shartnoma Lizing oluvchi tashabbusi bilan sud orqali bekor qilinishi mumkin.

17-§. Shartnomani Lizing beruvchi tashabbusiga ko'ra bekor qilish

47. Ushbu Shartnoma quyidagi hollarda Lizing beruvchining tashabbusi bilan sud orqali bekor qilinadi:

a) Lizing oluvchi lizing ob'ektidan foydalanish paytida Shartnoma shartlari buzilishiga yo'l qo'yganda yoki belgilangan maqsadda foydalanmaganda;

b) Lizing oluvchi lizing ob'ektining holati jiddiy yomonlashuviga yo'l qo'yganda;

v) Lizing oluvchi lizing to'lovini ushbu Shartnomada belgilangan oraliq to'lov muddati tugagandan keyin ketma-ket ikki martadan ortiq to'lamaganda.

Lizing beruvchi sudga murojaat qilishga, Lizing oluvchini Shartnoma shartlari buzilganligi haqida yozma ogohlantirib, ularni bartaraf etishning ushbu ogohlantirish xatida belgilangan muddati tugagandan so'ng haqli bo'ladi.

48. Lizing beruvchi quyidagi hollarda ushbu Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo'ladi:

a) Lizing oluvchi ushbu Shartnomaning 30-bandida qayd etilgan harakatlarni sodir etganda;

b) Lizing oluvchi ushbu Shartnomaning 31-bandida qayd etilgan harakatlarni sodir etganda.

18-§. Lizing oluvchi faoliyati to'g'risida hisobot

49. Lizing oluvchi har chorakda Lizing beruvchiga o'zining moliyaviy ahvoli haqida quyidagi hujjatlarni taqdim etish majburiyatini oladi:

a) buxgalteriya balansi (1-shakl bo'yicha hisobot);

b) foyda va zarar to'g'risida hisobot (2-shakl bo'yicha hisobot);

v) debitor va kreditor qarzdorliklar haqida ma'lumot;

g) Lizing beruvchining talabiga muvofiq boshqa hujjatlar.

19-§. Shartnoma muddati tugagandan so'ng lizing ob'ektiga mulk huquqining Lizing beruvchidan Lizing oluvchiga o'tishi

50. Mazkur Shartnoma muddati tugagandan, ya'ni Lizing beruvchi va Lizing oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargandan keyin lizing ob'ektiga mulk

(egalik) huquqi Lizing beruvchidan Lizing oluvchiga o'tadi. Lizing ob'ektiga mulk (egalik) huquqini Lizing beruvchidan Lizing oluvchiga o'tkazish uchun:

a) Lizing beruvchi va Lizing oluvchi o'rtasida qarzdorlikni solishtirish dalolatnomasi tuziladi;

b) Lizing beruvchi va Lizing oluvchi o'rtasida lizing ob'ektiga mulk (egalik) huquqini topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolaniadi.

51. Lizing oluvchi lizing ob'ektiga mulk (egalik) huquqini Lizing beruvchidan olgandan so'ng, o'zining ushbu huquqini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiradi.

Lizing ob'ektini Lizing oluvchi nomiga rasmiylashtirish bo'yicha barcha xarajat Lizing oluvchi tomonidan amalga oshiriladi.

20-§. Lizing ob'ektini qaytarib olish shartlari va tartibi

52. Agar Lizing oluvchi tomonidan ushbu Shartnomaning 25, 30 va 31-bandlarida qayd etilgan shartlar bajarilmasa, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa holatlarda Lizing beruvchining talabi bilan lizing ob'ekti qaytarib beriladi.

Lizing oluvchi tomonidan lizing ob'ektini qaytarish to'g'risida Lizing beruvchi talabnomasi olinganda, Lizing oluvchi talabnoma olingandan so'ng 30 kun ichida lizing ob'ektini Lizing beruvchining vakillariga topshirish orqali amalda joylashgan joyida qaytaradi. Lizing ob'ektining qaytarilishi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Lizing beruvchiga lizing ob'ekti qaytarib berilgandan so'ng, Lizing oluvchi 30 kun davomida lizing ob'ektini qaytarib olish uchun to'lov qilish (выкуп) huquqini yo'qotmaydi.

53. Lizing oluvchidan lizing ob'ektini qaytarib olish tartibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va ushbu Shartnomaga muvofiq belgilanadi.

54. Lizing ob'ektining qaytarib olinishi Lizing oluvchini ushbu Shartnomani bekor qilish paytigacha bajarishi zarur bo'lgan majburiyatlardan ozod etmaydi.

Lizing oluvchidan lizing ob'ekti qaytarib olinganda, Lizing beruvchi hisobiga lizing to'lovi sifatida kirim qilingan to'lovlar va ushbu Shartnomaga muvofiq Lizing oluvchi tomonidan to'langan boshqa to'lovlar qaytarilmaydi.

21-§. Fors-major holatlar

55. Ushbu Shartnomaga ko'ra qabul qilingan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan tomon, agar bunga fors-major holat sabab bo'lganligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi.

56. Fors-major holatlarga, ular oqibatida kelib chiqqan favqulodda, joriy sharoitda bartaraf etib bo'lmaydigan va oldindan kutilmagan vaziyatlar, agar ushbu vaziyatlar tomonlarning mazkur Shartnomani bajarishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, quyidagilar kiradi:

a) tabiiy hodisalar (zilzila, ko'chki, dovul, qurg'oqchilik va boshqa tabiiy hodisalar);

b) ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (harbiy harakat, ish tashlash, qamal, davlat tashkilotlari hamda davlatlar o'rtasidagi cheklovchi va taqiqlovchi choralar, shuningdek Hukumat qarorlari va boshqalar).

57. Fors-major holat sodir bo'lishi oqibatida o'z majburiyatini bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan va javobgarlikdan ozod qilishni da'vo qiladigan tomon fors-major holat sodir bo'lganini ma'lum bo'lishi bilan ikkinchi tomonni mazkur holat to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

58. Javobgarlikdan ozod bo'lish uchun asos fors-major holat sodir bo'lgan vaqtdan boshlab yoki agar xabar o'z vaqtida berilmagan bo'lsa, u holda xabar berilgan sanadan e'tiboran kuchga ega bo'ladi. Xabar berilmasligi, majburiyatni bajarmagan tomon zimmasiga ko'rilgan zararni qoplash yuzasidan javobgarlikni yuklaydi.

59. Fors-major holatlarning 6 oylik muddat davomida saqlanib turishi mazkur Shartnomani bekor qilish uchun asos bo'ladi.

22-§. Shartnomaning amal qilish muddati

60. Ushbu shartnoma uni tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va tomonlar majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

23-§. Nizolarni hal etish

61. Tomonlar ushbu Shartnomadan kelib chiquvchi nizolarni muzokara yo'li bilan hal etishning barcha zarur choralarini ko'rish majburiyatini oladi.

62. Nizoni muzokara yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmasa, u O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiy sudga hal qilinadi.

24-§. Boshqa shartlar

63. Lizing oluvchi Sotuvchi tomonidan lizing ob'ekti uchun bergan kafolatdan foydalanadi.

64. Mazkur shartnomaning bekor qilinishi tomonlarni u bekor qilingunga qadar bildirilgan o'zaro da'volarni (talablarni) qondirish majburiyatidan ozod qilmaydi.

65. Ushbu Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda tuzilib, tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganida qonuniy kuchga ega bo'ladi.

66. Ushbu Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

67. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan holat yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari qo'llaniladi.

25-§. Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari

Lizing beruvchi:	Lizing oluvchi:
Manzili _____	Manzili _____
Tel. _____ Faks: _____	Tel. _____ Faks: _____
Bank kodi _____	Bank kodi: _____
Hisobvarag'i _____	Hisobvarag'i _____
STIR _____	STIR _____
Boshqaruvchi _____	Direktor _____
Bosh buxgalter _____	Bosh buxgalter _____
Muhr o'rni _____	Muhr o'rni _____

**Lizing ob'ekti uchun
BUYURTMA**

Lizing oluvchi ushbu bilan lizing ob'ektining texnik parametrlarini quyidagilar bilan belgilaydi:

1. Lizing ob'ekti nomi _____;
2. _____;
3. _____;
4. _____;
5. _____;
6. _____;
7. _____;
8. _____;
9. _____;
10. _____;
11. _____;
12. _____.

Lizing ob'ekti _____ dan sotib olinishi lozim.

Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari

Lizing beruvchi:	Lizing oluvchi:
Manzili _____	Manzili _____
Tel. _____ Faks: _____	Tel. _____ Faks: _____
Bank kodi _____	Bank kodi: _____
Hisobvarag'i _____	Hisobvarag'i _____
STIR _____	STIR _____
Boshqaruvchi _____	Direktor _____
Bosh buxgalter _____	Bosh buxgalter _____
Muhr o'rni _____	Muhr o'rni _____

20__ yil «__» _____ dagi
_____ -sonli lizing shartnomasiga
2-ilova

**Lizing to'lovini amalga oshirish
GRAFIGI**

(so'm va tiyinda)

Lizing qiymati	_____ so'm		
Lizing ob'ektidan foydalanganlik uchun foiz stavkasi (yillik hisob asosida)			_____ %
Lizing muddati	___ oy		
No	Asosiy qarzni qaytarish sanasi	To'lanadigan asosiy qarzi summasi	Asosiy qarz qoldig'i
1			
2			
3			
4			
5			
6			
7			
8			
9			
10			
...			

Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari

Lizing beruvchi:

Manzili _____
Tel. _____ Faks: _____
Bank kodi _____
Hisobvarag'i _____
STIR _____
Boshqaruvchi _____
Bosh buxgalter _____
Muhr o'rni _____

Lizing oluvchi:

Manzili _____
Tel. _____ Faks: _____
Bank kodi: _____
Hisobvarag'i _____
STIR _____
Direktor _____
Bosh buxgalter _____
Muhr o'rni _____